



Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti.

Amaliy psixologiya 2 bosqich talabasi.

## **Ommaning omma ongi, ommaning umumiy xususiyatlari.**

*Anatatsiya* : Ushbu maqolada ommaviy fikrlashning psixologik qonuniyatlari, psixologik nuqtai nazardan omma nimani anglatishi va bir nechta olomon to'planishi omma emasligi, ommaga kirgan har qanday shaxsning g'oya va hislari shakillantirishi hamda shaxsiy xarakterning yo'qolib borishi va ommaning ongsiz holatdagi o'y-fikrlari doim ustun turishi haqida, ommada miya faoliyati asosiy o'rinda emas, ommaning tafakkurining susayib, o'z o'rnini hislarga berishi, ommaning maxsus psixologik xususiyatlari haqida gap yuritiladi.

*Kalit so'zlar* : Olomon, omma, qonuniyat, geterogen, gomogen, ong, ongsizlik, xarakter, islom dini.

Biz oldin omma so'ziga e'tibor qaratadigan bo'lsak, oddiy qilib tushuntirilganda, "olomon" va "omma" so'zlari insonlarning ma'lum jihatlardagi mushtaraklik (milliy, kasbga doir, jinsiy va hokozo) tufayli birlashishni anglatadi. Agar psixologik nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, bu so'zlarning ahamiyati baland. Shunday vaqtlar yoki ba'zi vaziyatlarda ommaning xususiyatlari uning tarkibidagi insonlarning xususiyatlaridan ancha farqli bo'lishi mumkin. Buni qaranki barcha insonlarning g'oya va hislari mushtaraklik kasb etganda yani uyg'unlashgan nuqtada, insonning insonning tafakkurga ega bo'lgan shaxsiyati yo'qolib boradi. Bundan shuni anglab olish mumkinki, ommaviy ong vaqtinchalik bo'lsa-da, aniq bir shakilga kiradi va faqatgina ma'lum bir xususiyatlarini ifodalaydi. Mening fikrimcha tafakkur tarzi bir xil shakilga kirgan odamlarning jamoasini tashkiliy omma yoki psixologik omma deb atash mumkin.

Ayonki tasodifiy insonlar birlashishi psixologik (tashkiliy) ommaning xususiyatlariga ega bo'lomaydi. Minglab tasodifiy insonlarning hech qanday aniq maqsadsiz jamoat joyida jamlanishi deb aytaolmaymiz. Biron bir guruh omma maqomini olishi uchun ma'lum bir xususiyatlar talab qilinadi. (omma ommaviy fikrlashning psixologik qonuniyatlari orqali boshqariladi).[1 , 423]



Bazi vaziyatlarda esa mimglab tasadifiy to'plangan odamlar emas, balki bor-yo'g'i besh-olti kishi psixologik ommani tashkil etishi ham mumkin. Boshqa bir tomondan, butun boshli millat ma'lum ta'sirlar oqibatida ommaga aylanib qolishi ham mumkin. Psixologik omma qat'iy aniqlakdagi xususiyatlarga ega bo'lsa-da, bu xususiyatlar o'zgarishga uchrashi mumkin. Umumiy xususiyatlardan tashqari ommaning holatini belgilab beradigan boshqa aniq xususiyatlar ham mavjud. Psixologik omma bir necha turlarga bo'linishi mumkun;

-geterogen omma – bir -birdan farqlanuvchi xususiyatli insonlar orqali vujudga kelgan omma.

-gomogen omma – ya'ni o'zaro o'xshash xususiyatli insonlardan tashkil topgan omma.

Bu ikki turdagi omma o'zaro farqlanadigan maxsus jihatlari bor. [2, 318]

Ommaning turlari o'rtasidagi farqlarni sanashdan oldin, har qanday omma uchun xos bo'ladigan xislatlarni ko'rib chiqish tog'ri deb bildim. Bunda biz o'z ishini bir oilaga tegishli bo'lgan umumiy xususiyatlarni aytishdan boshlab, so'ng turlarning farqini tushuntirishga o'tadigan tabiatshunos kabi yo'l tutamiz. Ommaning fikrlash tarzini aniqlik bilan tushuntirib berish mushkul, chunki uning ba'zi jihatlari nafaqat millatga qarab, balki ommaning tabiatiga qarab ham farqlanishi mumkin. Agar biz shaxs psixologiyasini o'rganishda ham ayni ayni shu muammoga duch kelishimiz mumkin. Masalan butun umrini bir xil xarakter bilan o'tkazadigan insonlar faqat kitoblarda bo'ladi. Muhit muntazam ravishda bir xillikni saqlasagina, xarakter umuman o'zgarmasligi mumkin. Barcha ruhiy holatlar xarakterning ehtimoliy ko'rinishlari bo'lib, ular muhit birdaniga o'zgarib qolgan paytda, o'zligini namoyon etadi.

Ommani barcha bosqichlarda o'rganish ilojsiz bo'lganligi tufayli, biz tugal tashkilot shakliga o'tgan ommalar to'g'risida gaplashamiz. Bu orqali biz omma qanday ekanligini emas, u qanday bo'lishi mumkinligini bilib olamiz. Ommaning tugal ko'rinishda, avvalo, xalq xarakterida yangi va maxsus xususiyatlar ustunlik qiladi; keyin esa to'daga tegishli bo'lgan umumiy his va o'ylarga navbat keladi. Bu o'rinda biz yuqorida aytganimiz, "ommaviy fikrlashning psixologik qonuniyatlari"ga murojat qilishimizga to'g'ri keladi. Ommaning psixologik xususiyatlari orasida alohida shaxslarning xislatalariga mos



tushadigan va buning teskarisi, faqatgina ommaga xos bo'lib, jamoalardagina kuzatilishi mumkin bo'lgan xususiyatlar mavjud. Biz mana shu xususiyatlarining ahamiyatini ko'rsatib berishni niyat qildim.[3, 245]

Mashhur faylasuf Gerbert Spenserning fikrlariga qarshi tarzda aytish mumkinki, “ommani shakillantirgan birlashmadagi elementlar orasida hech qanday bog'loqlik mavjud emas. Aslida, ma'lim birlashma uni tashkil toptirgan elementlaridan farqli xususiyatlarga ega bo'ladi. bu xuddi kimyodagidek, natriy va xlorini qo'shasiz va ularga o'xshamagan yangi modda – tuz hosil qilasiz”. Omma va uning shakillantirgan shaxslar o'rtasidagi farqni isbotlash uncha ham mushkul vazifa emas, biroq nima sababdan shunday farq yuzaga kelayotganini tushuntirish mushkul.[4, 348]

Omma umumiy xususiyatlarining ustunlik qilishi omma tafakkur qobilyati nima uchun baland bo'lmasligini izohlaydi. Deylik, har biri turli sohada kuchli bo'lgan, turfaxil odamlar to'planib ommaga daxldor qaror chiqardi. Shu holatda, qaror chiqargan insonlarning barchasi o'z sohalarida mutaxassis bo'lishiga qaramay, ularning qarorini bir to'da ahmoq tomonidan chiqarilgan qarorini bir to'da ahmoq tomonidan chiqarilgan qarorga nisbatan ustun ko'rib bo'lmaydi. Haqiqat shuki, har qanday mutaxassislar birlashib ish qilmoqchi bo'lishsa, faqatgina o'rtacha qobilyatlardan foydalana olishga qurblari yetadi. Aytishganidek, butun dunyo deganda omma tushiniladigan bo'lsa, butun dunyoda Enshteynchalik aql yo'q.

Bilamizki, shaxsni onglilik holatidan olib chiqishning iloji bor, bunda shaxs o'zining ongli xarakterini mutloqo yo'qotadi hamda o'z xarakteri va odatlariga qarshi ravishda buyruq beruvchining barcha aytganlariga bo'ysunadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, omma tarkibiga kiradigan shaxs ma'lum vaqt o'tib yo yuqumlilik ta'siri oqibatida, yo boshqa bir no'malum sababga ko'ra, o'zini gipnoz holatiga tushgan inson kabi his etarkan. Bunda miyya faoliyati falajlanadi, gipnoz qilingan inson esa barcha buyruqlarga ongsiz ravishda bo'ysunadi. Ongli shaxsiyat, xohish va shaxsiy tushunchalar mutloqo yo'qoladi. Barcha o'y va hissiyotlar gipnozchi buyruqlariga ko'ra harakatlanadi.

Omma tarkibidagi shaxs shu jihatdan o'ziga o'xshamay qolmaydi. U o'z mustaqilligini butkul yo'qotishdan oldin, hissiyot va g'oyalar o'zgarishini boshdan kechiradi. Bu o'zgarish



jarayoni shunchalik kuchli, u baxilni saxiyga, har narsaga shubha bilan qaraydigan kishini dindorga, vijdonli insonni jinoyatchiga, qo'rqoqni qahramonga aylantiradi. Bundan kelib chiqib quyidagicha xulosa qilamiz: “omma doimo alohida shaxsdan ko'ra pastroq tafakkur qobiliyatiga ega bo'lib, lekin hislar va harakatlarning yuzaga kelishiga qarab, turli vaziyatlarda omma yakka shaxsadan ko'ra yaxshiroq yoki yomonroq bo'lishi mumkin. [5, 615]

Xulosa qiladigan bo'lsak, barchasi ommaning qay maqsadda harakat qiloyotganiga bog'liq. Ommani faqat jinoyat ishlar yuzasidan o'rganib chiqqan psixologlar emas shu nuqtani e'tibordan chetdan qoldirishgan. Omma ko'p hollarda jinoyat ishlarga moil ekanligi rost menimcha, ammo u qahramonona harakatlarga ham qodir. Biron maslak yoki g'oya zafar quchish uchun jonini jabborga beradigan manashu omma hisoblanadi, yakka shaxs emas. Misol tariqasida Abdulhamid islom olamining so'ngi xalifasi sifatida Quddusni Ingilizlar, Ruslar, Fransuzlar va Yaxudiylardan himoya qilishi, Abdulhamidga qarshi chiqqan “yosh turklar” tashkiloti ommaviy tartibsizlikka va “Usmoniylar” imperiyasining qulashiga sabab bo'ladi. Bunday qahramonona harakat, albatta, ongsiz jarayonda kechadi, lekin tarixni shakillantirib beradigan voqealar ham, aslida, mana shu qahramonliklar oqibatida yuzaga keladi. Agar xalqning qahramonliklari ro'yxati tuzulganida, dunyo tarixi ko'plab ommaviy harakatlarini hisobga olishiga to'g'ri keladi mening nazarimda.

### *Adabiyotlar ro'yxati.*

1. Gustav Lebon, “Ommaning psixologiyasi”. “yangi asr avlodi”, 2023-yil.
2. Becher, T. (1989). *Academic tribes and territories: Intellectual enquiry and the culture of disciplines*. Society for Research into Higher Education & Open University Press.
3. Fortmann, R., Kuhn, S., Hunefeldt, P., & McElvany, N. (2013). *Scientific literacy*. In N. Muller, 3. N. Pollozek, & P. Pointner (Eds.), *Science literacy*. Springer. <https://doi.org/10.1007/978-94-007-4226-0>
4. Gibbons, M., Limoges, C., Nowotny, H., Schwartzman, S., Scott, P., & Trow, M. (1994). *The new production of knowledge: The dynamics of science and research in contemporary societies*. Sage.